

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiyot O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarda (keyingi o'rinlarda – vazirlik tizimi) zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash jarayonlarini uslubiy jihatdan tartibga solinishini belgilaydi.

2. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadi vazirlik tizimi faoliyatini har tomonlama tahlil qilish yo'li bilan korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan funksiyalar va lavozimlarni aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishdan iborat.

3. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagi hujjatlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar, mas'ul shaxslar, ularni amalga oshirish mexanizmi va muddatlarni o'z ichiga qamrab oladigan korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati;

o'ziga xos korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash matritsasi;

korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo'yicha mezonlar.

4. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash zarurati yuzaga kelganda;

qonun hujjatlari talablari o'zgarganda;

funksiya va tartib-taomillarni amalga oshirishga jiddiy ta'sir qiladigan tarzda vazirlik tizimining ichki hujjatlari o'zgarganda;

vazirlik tizimining xavf-xatar mavjud funksiyalari xususiyatlarining o'zgarishi, yangi funksiyalarning paydo bo'lishi;

vazirlik tizimi funksiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa holatlarning kelib chiqishi.

5. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik — korruptsiya belgilariga ega, sodir etilgani uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korruptsiyaviy xavf-xatar — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korruptsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – vazirlik tizimining amalga oshiriladigan funksiyalari (vakolatlari)ni tahlil qilish, ularga xos korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat;

korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi – vazirlik tizimi faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korruptsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul lavozim, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari, qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatar darajasi, korruptsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralari amalga oshirishga mas'ul ijrochilarni o'z ichiga olgan hujjat;

korruptsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani ya'ni pul, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tusdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, va'da qilish va berish, shuningdek, pora berish va/yoki olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlarni olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanish;

qoldiq xavf-xatar – aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi – vazirlik tizimidagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan, tizim funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro'yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq ehtimoliy korruptsiyaviy xavf-xatar (sxema)lar tasnifi, o'ziga xos va qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul xodimlar lavozimlarini o'z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

tartib-taomil – bitta shaxs tomonidan bajarilishi asosida bitta guruhga birlashtirilishi mumkin bo'lgan yoki bitta natijaga yo'naltirilgan yoki ma'lum bir jarayonning ajralmas elementi bo'lgan vazirlik tizimi funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi harakatlar majmui;

funksiya – tartib-taomillar yig'indisini tashkil etuvchi vazirlik tizimi faoliyatning jarayonlaridan biri (faoliyat yo'nalishi);

baholash xulosasi – xodimning yoki vazirlik tizimining subyektiv qarashi yoki fikri asosida biron-bir fakt yoki hodisa bo'yicha qarori;

ishchi guruh – korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash uchun vazirlik markaziy apparati hamda vazirlik tizimi tashkilotlarida tuziladigan xodimlar tarkibi.

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash vazirlikning markaziy apparati va hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarni qamrab olishi lozim.

7. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash amalga oshirilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha:

vazirlik markaziy apparatida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi;

hududiy bo'linmalar va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarda ularda korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati vazifasi yuklatilgan yoki birlashtirilgan mas'ul xodim;

vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratini amalga oshiruvchi tuzilmalar mas'ul hisoblanadi.

8. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning tarkibi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati bo'yicha — vazir tomonidan;

vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar bo'yicha tegishli hududiy bo'linma yoki tashkilot rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash

9. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash iqtisodiyot va moliya vazirining topshirig'i asosida amalga oshiriladi. Bunda uning amalga oshirilishi muddati belgilanadi.

Vazir buyrug'i loyihasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tomonidan tayyorlanadi. Buyruq loyihasida ushbu uslubiyotda ko'zda tutilgan har bir bosqichni amalga oshirish muddatlari shartli ravishda ko'rsatiladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashning umumiy muddati 3 oydan oshmasligi lozim.

10. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini dastlabki baholashni va tegishli funksiyalar doirasida vazirlik tizimi xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o'z ichiga oladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash uchun vazirlik tizimida ishchi guruh tuziladi. Ishchi guruh tarkibiga:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar funksiyalarini bajaruvchi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari;

vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi yoki tegishli huzuridagi, tasarrufdagi yoki hududiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratiga mas'ul xodimlar;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo'lgan vazirlik tizimining boshqaruv xodimlari kiradi.

11. Ishchi guruhlar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarni jalb qilgan holda, vazirlik tizimida xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarga mazkur uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibga rioya qilish bo'yicha maslahatlar beradi;

tegishliligi bo'yicha vazirlikning markaziy apparati, hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufidagi tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini tuzilishini tashkil qiladi;

vazirlik tizimida tarkibiy bo'linmalar bo'yicha tuzilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarning umumlashtirilishini va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi tuzilishini tashkil qiladi;

tegishli rahbarlarga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini taqdim etadi;

zarur hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullardan qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni so'rab oladi;

korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan takliflarni kiritadi;

vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufdagi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha ularni qabul qilish maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa tayyorlaydi;

ushbu uslubiyotda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash doirasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufidagi tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini tashkil qiladi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash doirasida ishchi guruhlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

tegishli hududiy va tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi;

tegishli hududiy va tarkibiy bo'linmalarga mazkur uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibga rioya qilinishi bo'yicha maslahat beradi;

zarur hollarda tegishli qo'shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi;

vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufdagi tashkilotlarda korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan takliflar kiritadi;

vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufdagi tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

ushbu uslubiyotda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

13. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholanishi quyidagi bosqichlardan iborat:

tarkibiy bo'linmalar rahbarlari ishchi guruhga:

tegishli tarkibiy bo'linmalar tomonidan bajariladigan vazifa va funksiyalar tavsifini uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda;

tegishli tarkibiy bo'linmaning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini uslubiyotning 2-ilovasiga muvofiq shaklda taqdim qiladi;

shakllarni to'ldirish *.xls (*.xlsx) yoki *.doc (*.docx) elektron hamda pdf tasdiqlangan formatida amalga oshiriladi;

shakllarga qo'shimchalar qo'shishga yo'l qo'yilmaydi.

14. Shakllar quyidagi tartibda to'ldiradi:

shakllarga funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan jarayon ro'yxati, shu bilan birga, uning ijrosi uchun mas'ul bo'lganlarni kiritiladi;

o'z tajribasi va ushbu uslubiyotning 4-bobida bayon etilgan mezonlar asosida har bir funksiya va tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik va o'ziga xos xavf-xatari darajasini baholaydi.

15. Eng ko'p korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan funksiyalarga kiradigan jarayonlar bo'yicha quyidagilar to'g'risida ma'lumot to'ldiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni amalga oshirish xavfini kamaytirishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari;

korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari kiritilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar va ichki hujjatlar, shuningdek, o'z tajribasiga tayangan holda, ushbu uslubiyotning 4-bobida bayon etilgan mezonlar asosida qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholaydi.

To'ldirilgan shakllarni vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, hududiy va tizim tashkilotlarida esa tegishli tashkilotlar rahbarlari tasdiqlaydi.

Funksiyalar, jarayonlar va ularga berilgan xavf-xatar darajalariga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, ishchi guruhi funktsiya, jarayonni bajarish uchun mas'ul tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga izoh berish yoki shakllarga tuzatish kiritish uchun so'rov yuboradi.

Bunda so'rov olingan kundan boshlab ikki ish kunidan oshmagan muddatda so'rovga javob yuborilishi lozim.

Ishchi guruh hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi o'z ekspertlik fikriga tayangan holda, funktsiyalar, tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini to'g'rilashi, shuningdek, tegishli funktsiya, tartib-taomil bo'yicha tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholashga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin.

16. Tarkibiy bo'linmalar tomonidan taqdim qilingan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi vazirlik tizimining korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

17. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi idoraviy korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi to'g'ri va to'liq to'ldirilganligini tekshiradi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning yetarliligi va maqbulligini har bir jarayon kesimida tahlil qiladi.

18. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan jarayonlar uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi va ishchi guruh ushbu uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq, korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini ishlab chiqadi.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi tarzda (yillik) baholanishi

19. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi tarzda (yillik) baholash vazirning topshirig'i asosida tashkil etiladi. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi.

20. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi tarzda (yillik) baholashni amalga oshirishda, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi vazirlik tizimi tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga ular tomondan o'z bo'linmalarining funktsiyalarini tavsiflaydigan ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun mazkur uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda savolnoma yuboradi, unda rahbarlar o'z bo'linmalari funktsiyalari va jarayonlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldingi baholanishiga nisbatan qanday o'zgarishlar bo'lgani aks ettiriladi.

21. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari to'ldirilgan savolnomalarni tasdiqlangan va elektron shakllarda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limiga taqdim qiladi.

22. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzadi va unda avvalgi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga nisbatan o'zgarishlarni qayd etadi.

Savollar va e'tirozlar kelib chiqqan taqdirda, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarga aniqlangan e'tirozlar buyicha so'rovlar yuboriladi.

So'rovga ikki ish kunidan oshmagan muddatda javob taqdim etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasi takomillashtiriladi.

23. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini hamda tarkibiy bo'linmalar rahbarlaridan olingan ma'lumotlar asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish uchun xavf-xatarlarni dastlabki baholash doirasida ishlab chiqilgan yoki amalga oshirilgan chora-tadbirlarni hisobga olgan holda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi tarzda baholashni amalga oshiradi.

24. Tarkibiy tuzilmalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi hamda ishchi guruh tomonidan e'tirozlar mavjud bo'lmagan taqdirda, vazirlik rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

4-bob. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida amalga oshiriladigan funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlari darajasini baholash uslubiyoti

25. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma'lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashdan o'tkazilgan vazirlik funksiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlari (misol uchun, tarkibiy bo'linmalar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari to'g'risidagi nizomlar va h. k.);

ichki tekshiruvlar materiallari, shu bilan birga, xizmat tekshiruvlari materiallari;

ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha monitoring natijalari;

odob-axloq komissiyasi yig'ilishlari natijalari;

manfaatdor tomonlar, davlat xizmati oluvchilar, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar orasida o'tkazilgan so'rov, jumladan, ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha vazirlik xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;

vazirlik tizimi faoliyatidagi huquqbuzarliklarga oid statistik ma'lumotlar;

korruptsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillaridan kelib tushgan murojaatlar;

vazirlik tizimi xodimlari tomonidan sodir etilgan korruptsiyaviy harakatlar yoki odob-axloq qoidalariga rioya qilmaslik to'g'risida fuqarolik jamiyati institutlari murojaatlari va ommaviy axborot vositalari (OAV)dagi axborotlar;

ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar

huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan, prokuror nazorati doirasidagi hujjatlar, jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar.

26. Funktsiyalarning korruptsiyaviy xavf-xatarlarini baholash doirasida har bir funktsiya quyidagi o'lchov asosida baholanadi:

korruptsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p duch keladigan funktsiya;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam duch keladigan funktsiya.

27. Cheklangan resurslardan oqilona foydalanish uchun (inson, moddiy, texnikaviy va moliyaviy) korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash navbat bilan o'tkazilishi mumkin, ya'ni korruptsiyaviy xavf-xatarlarni birinchi navbatda korruptsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo'lgan funktsiyalar bo'yicha baholanadi.

28. Quyidagi holatlarda funktsiya korruptsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil hisoblanadi:

tekshiruv va nazorat funktsiyalari;

funktsiya doirasida jismoniy va yuridik shaxslar bilan to'g'ridan to'g'ri o'zaro aloqani amalga oshirilishi;

davlat namunasidagi hujjatlarni, ruxsatnomalarni, xulosalarni (jumladan, baholash xulosalarini) berish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va ichki hujjatlari bilan belgilangan harakatlarni kelishish va tasdiqlash (ma'qullash);

funktsiya doirasida vazirlik tizimining mulki va budjet mablag'larini ajratish yoki vazirlik tizimining budjet mablag'lari va mulkni oluvchilarini tanlash;

funktsiya doirasida tovarlar yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatishga oid buyurtmalarni joylashtirishni amalga oshirish;

funktsiya doirasida vazirlik tasarrufidagi yer uchastkalari, boshqa ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish shartnomalarini tuzish huquqini berish;

funktsiya doirasida subyektiv parametrlarga ko'ra, bir nechta talabgorni taqqoslashni amalga oshirish;

funktsiya doirasida moddiy-texnik resurslarni saqlash va taqsimlashni amalga oshirish;

vazirlik tizimi tashkilotlarida davlat attestatsiyasini o'tkazish;

vazirlik tizimida xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazish, ishga tiklash masalalarida qaror chiqarish, shuningdek, davlat attestatsiyasini qaytadan topshirishga ruxsatnoma berish;

tekshiruvlar bilan tasdiqlangan shikoyatlar yoki mazkur funksiyaga taalluqli korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berish uchun mo'ljallangan aloqa kanallari orqali kelgan murojaatlar mavjudligi;

mazkur funktsiyani amalga oshirish doirasida korrupsiya faktlari yoki unda gumon qilishga oid axborotlar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar chop etilishi;

funktsiyani amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linma rahbari vakant joyining mavjudligi yoki tarkibiy bo'linma rahbarlarining tez-tez almashib turishi;

huquqni muhofaza qilish, boshqa davlat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan funktsiya bilan bog'liq korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan taqdim etilgan materiallari mavjudligi;

normativ-huquqiy hujjatlar bilan vazirlik tizimlari zimmasiga yuklangan nazorat funksiyalari;

vazirlik tizimiga ishga qabul qilish, xodimlarni tanlash va joylashtirish, taqdirlash va rag'batlantirish choralari qo'llash haqida qarorlar tayyorlash va qabul qilish;

vazirlik tizimi xodimlariga individual imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni berish;

vazirlik tizimi tomonidan moddiy-texnik resurslarni saqlash va taqsimlash;

sudlarda vazirlik tizimining manfaatlarini ifodalash;

ariza yoki hisobot va boshqa hujjatlarni qabul qilish doirasida vazirlik tizimining fuqarolar va yuridik shaxslar bilan o'zaro munosabatlari;

vazirlik tizimlari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish, tovar (ish, xizmat)larni pulli asosda sotib olish;

vazirlik tizimining budjet va budjetdan tashqari mablag'larini ajratish to'g'risida qarorlar tayyorlash va qabul qilish;

lavozim majburiyatlarini bajarishda tasdiqlangan manfaatlar to'qnashuvi faktlari, jumladan, favoritizm, nepotizm (qarindosh-urug'chilik), homiylik, urug'-aymoqchilik faktlarining mavjudligi.

29. Agar vazirlik tizimi ushbu uslubiyotning 28-bandida ko'rsatib o'tilmagan funksiyalarni bajarsa, ushbu funksiyalar quyidagi holatlarda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq hisoblanadi:

korrupsiyaviy xatti-harakatlari to'g'risida xabar berish uchun mo'ljallangan aloqa kanallari orqali ushbu funktsiyaga tegishli shikoyat yoki xabarlarining mavjudligi;

ushbu funksiyani amalga oshirish doirasida korrupsiyaviy faktlar yoki shubhalar, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi.

30. Funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroqligi to'g'risidagi qaror yuqorida ko'rsatib o'tilgan mezonlar asosida qabul qilinadi.

Ushbu uslubiyotning 28 va 29-bandlarida nazarda tutilmagan hollarda funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq hisoblanadi.

5-bob. Tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash uslubiyoti

31. Vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi muvofiqlashtiruvchi quyidagilarni amalga oshirishni hisobga olgan holda, funktsiya va tartib-taomillarni tahlil qilish asosida ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatarlarni (mumkin bo'lgan korrupsiya sxemalarining qisqacha tavsifini tayyorlaydi) aniqlaydi:

xodim tomonidan va/yoki yaqin qarindoshlari orqali pora olish, shuningdek, xodimning o'z vakolatlarini qonunga xilof ravishda bajarishi munosabati bilan tovarlarni sotib olishda, turli tashkilotlardan xizmatlar olishda asossiz, yuqori haq, imtiyozlar olish;

davlat xizmatlaridan foydalanishda sun'iy to'siqlarni yaratish;

o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik yoki favqulodda tartibda qaror qabul qilish va jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan mavjud talablarni chetlab o'tish;

hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;

rasmiy vakolatlarni amalga oshirishda favoritizm, nepotizm (tanish-bilishchilik), mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlar mavjudligi.

32. Har bir aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar uchun uning o'ziga xos darajasi (korrupsiya xavfining tug'ma darajasi) quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

yuqori;

o'rta;

past.

33. Korrupsiyaviy xavf-xatarining o'ziga xos darajasi korrupsiya uchun xos bo'lgan xavf-xatar darajasini baholash matritsasi ushbu uslubiyotning 5-ilovasiga muvofiq baholanadi.

34. Agar xavf-xatar yuqori yoki o'rta daraja bilan tavsiflangan bo'lsa, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tarkibiy bo'linma rahbarlariga ushbu funksiyalarga nisbatan nazorat tartiblarini tavsiflash to'g'risida so'rov yuboradi.

Tegishli tarkibiy bo'linma rahbarlari olingan so'rov asosida nazorat tartib-taomillari va choralari to'g'risida zarur ma'lumotlarni tayyorlaydilar (zarur bo'lganda hujjatlarni ilova qilgan holda) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limiga taqdim etadi.

35. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini quyidagi shkala bo'yicha baholaydi:

yuqori;

o'rta;

past.

36. Korrupsiyaviy qoldiq xavf-xatar darajasiga baho berish mezonlari 6-ilovada keltirilgan.

6-bob. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini kamaytirish choralari

37. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarni kamaytiradigan chora-tadbirlar, nazorat va harakatlar, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

vazirlik tizimining funksiyalari va jarayonlarini aniq tartibga solish;

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va faoliyatni (vazifa va funksiyalarni) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

vazirlik tizimi xodimlari hamda ularga nisbatan ma'muriy tartib-taomil va boshqa harakatlar amalga oshirilayotgan shaxslar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash, elektron axborot almashish tizimini joriy etish;

rasmiy faoliyatni amalga oshirishda axborot texnologiyalarini qo'llash, ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ularni tuzatish uchun videokuzatuv va audio-yozuv vositalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish;

rasmiy veb-saytlarda va boshqa ommaviy axborot vositalarida amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish orqali tarqatish;

vazirlik markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar xodimlariga tushuntirish tadbirlari va profilaktik suhbatlar o'tkazilishi hamda ishonch telefonlari va aloqa kanallarini targ'ib qilish;

mexanizmni takomillashtirish, aniq mezonlarni belgilash va nomzodlarni tanlashda shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo'lgan lavozimlarni egallab turgan vazirlik tizimi xodimlarini majburiy almashtirish tartibini belgilash;

yakka tartibda qaror qabul qilish holatlarini kamaytirish, shuningdek, vazirlik tizimi xodimlarining qarorlar natijalari to'g'risida hisobot berishining qo'shimcha shakllarini yaratish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilinishini ta'minlash;

vazirlik tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish, bilimini oshirish;

vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi tizimi elementlarining samarali ishlashini ta'minlash.

38. Korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish choralari belgilashda quyidagilar inobatga olinadi:

har bir chorani vazirlik tizimi xodimlari tomonidan o'z maqsadlarini, yakuniy natijani va ma'lum korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishni to'g'ri tushunishi uchun aniq va to'g'ri shakllantirish;

har bir chora uchun uni amalga oshirish davri yoki davriyligi belgilanishi, uning bajarilishi uchun ma'sul shaxslar, ushbu chora-tadbirlarning bajarilishini monitoring qilish va ularning samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlash.

39. Vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tomonidan vazirlik markaziy apparati va hududiy bo'linmalar faoliyati (vazifa va funksiyalari)dagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida vazirlikning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va "E-anticor.uz" elektron platformasiga har yili Agentlik tomonidan belgilangan muddatga qadar kiritiladi.

40. Vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tomonidan "E-anticor.uz" elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan, avtomatik ravishda quyidagi hujjatlar shakllantiriladi:

davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi;

davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi;

davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlari ro'yxati.

41. Iqtisodiyot va moliya vaziri har yili 1-martga qadar korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini "E-anticor.uz" elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

42. Zaruratga ko'ra, vazirlik tizimining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va ushbu uslubiyatning 7-ilovasida keltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalalari vazirlik tizimidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limining taklifiga binoan Iqtisodiyot va moliya vaziri tomonidan ko'rib chiqiladi.

43. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish vazirlik tizimidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

44. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilmasligi yoki yetarli darajada bajarilmagani uchun javobgarlik vazirlik tizimi tegishli rahbariga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
tizimida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
1-ILOVA

“TASDIQLAYMAN”
Davlat tashkilotining rahbari
F.I.O. _____
_____ - yil “ _____ ” - _____

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi faoliyatining (vazifa va funksiyalarining)
TAVSIFI

[illegible]

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
tizimida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
2-ILOVA

“TASDIQLAYMAN”
Davlat tashkilotining rahbari
F.I.O. _____
_____ - yil “ ____ ” _____

ning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning XARITASI

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi (past, oʻrta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga masʼul boʻlgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, oʻrta, yuqori)	Masʼul ijrochilar
	1. Tarkibiy boʻlinmaning nomi*						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
1.1. Jarayon nomi							
1.2. Jarayon nomi							
2. Tarkibiy boʻlinmaning nomi*							
2. Funksiyaga oid munosabat nomi							
2.1. Jarayon nomi							
2.2. Jarayon nomi							

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
tizimida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
3-ILOVA

**Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan vazirlik tizimining lavozimlari
RO‘YXATI**

T/r	Bo‘linmalar funksiyalarini bajarishga mas’ul shaxslar (F.I.O., lavozimi)	Bo‘linma nomi
1. Davlat organi/idorasi/hududiy boshqarma, idoraviy markaz yoki muassasa bo‘linmasi nomi		
1.1		
2. Davlat organi/idorasi/hududiy boshqarma, idoraviy markaz yoki muassasa bo‘linmasi nomi		
2.1		

**Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keyinchalik baholash uchun funksiyalarini tavsiflash uchun
savolnoma**

SHAKLI

Iltimos, quyidagi savollarga javob bering (kerakligini belgilang):

1. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni so'nggi marta baholaganingizdan beri qonun hujjatlarida biron-bir o'zgarishlar bo'ldimi? Agar o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, iltimos, quyidagi jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha

B) Yo'q

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni so'nggi marta baholaganingizdan beri tarkibiy bo'linma tomonidan amalga oshirilgan funksiyalarda yoki ushbu tashkilot faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarda biron-bir o'zgarishlar bo'ldimi? Agar o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, iltimos, quyidagi jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha

B) Yo'q

3. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni so'nggi marta baholaganingizdan beri sizning bo'linmangiz tomonidan bajariladigan funksiyalarni bajarishga ta'sir ko'rsatgan yoki ta'sir ko'rsatadigan davlat boshqaruvi organlarining faoliyatida/tarkibiy qismida biron-bir o'zgarishlar bo'ldimi? Agar o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, iltimos, quyidagi jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha

B) Yo'q

4. Avvalgi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida korrupsiya xavf-xatarini minimallashtirish bo'yicha choralar ko'rildimi? Nima va qachon amalga oshirilganligini tasvirlab bering. Amalga oshirilmagan yoki qisman bajarilgan bo'lsa, nima uchun bunday bo'lganini yozing.

A) Ha

B) Yo'q

V) Qisman bajarilgan

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi bo'linmalarida funksiyalari va tartib-taomillarining bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar ham mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, iltimos, quyidagi jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha

B) Yo'q

T/r	Funksiyaning o'zgarish sabablari	Funksiya o'zgarishlarining tavsifi	Funksiya doirasida bajariladigan yangi/o'zgartirilgan tartib-taomillar	Tartibtaomillarni amalga oshirish uchun javobgar shaxslar (F.I.O, lavozimi)
1. Davlat organi/idorasi/hududiy boshqarma, idoraviy markaz yoki muassasa nomi				
1.1. Davlat organi/idorasi/hududiy boshqarma, idoraviy markaz yoki muassasa bo'linmasi nomi				
1 1.1				

1 1 2.				

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi tashkilot nomi:

Tarkibiy tuzilma nomi:

To'ldirgan shaxsning lavozimi:

To'ldirgan shaxsning F.I.O:

Imzo: _____

To'ldirilgan sana: _____

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
tizimida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
5-ILOVA

**O‘ziga xos korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash
MATRITSASI**

Funksiya	Tartib-taomil	Bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy harakat/xavf-xatar	O‘ziga xos korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi
Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq	Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq	xodimlar va ularning yaqin qarindoshlari tomonidan pora olish, shuningdek, xizmat majburiyatlarini vijdotsizlik bilan bajarish sababli turli tashkilotlardan tovarlar sotib olish, xizmatlardan foydalanishda asossiz yuqori mukofotlar, preferensiyalar yoki imtiyozlarni olishi;	Yuqori
		davlat xaridlaridan foydalanishda sun’iy to‘siqlar yaratish;	Yuqori
		belgilangan muddatda qaror qabul qilmaslik yoki navbatdan tashqari tartibda yoxud muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan amaldagi talablarni chetlab o‘tgan holda tezlashtirib qaror qabul qilish;	Yuqori
		hujjatlarga, ma’lumotlarning elektron bazasiga bila turib yolg‘on ma’lumotlarni kiritish;	Yuqori
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi;	Yuqori
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda favoritizm, nepotizm, mahalliychilik, homiylik, urug‘ aymoqchilik holatlarining mavjudligi;	Yuqori
	Korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq	xodimlar va ularning yaqin qarindoshlari tomonidan pora olish, shuningdek, xizmat majburiyatlarini vijdotsizlik bilan bajarish sababli turli tashkilotlardan tovarlar sotib olish, xizmatlardan foydalanishda asossiz yuqori mukofotlar, preferensiyalar yoki imtiyozlarni olishi;	o‘rta

		davlat xaridlaridan foydalanishda sun'iy to'siqlar yaratish;	o'rta
Korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq		belgilangan muddatda qaror qabul qilmaslik yoki navbatdan tashqari tartibda yoxud muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan amaldagi talablarni chetlab o'tan holda tezlashtirib qaror qabul qilish;	O'rta
		hujjatlarga, ma'lumotlarning elektron bazasiga bila turib yolg'on ma'lumotlarni kiritish;	O'rta
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;	O'rta
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda favoritizm, nepotizm, mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik holatlarinin mavjudligi;	O'rta
	Korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq	xodimlar va ularning yaqin qarindoshlari tomonidan pora olish, shuningdek, xizmat majburiyatlarini vijdotsizlik bilan bajarish sababli turli tashkilotlardan tovarlar sotib olish, xizmatlardan foydalanishda asossiz yuqori mukofotlar, preferensiyalar yoki imtiyozlarni olishi;	Past
		davlat xaridlaridan foydalanishda sun'iy to'siqlar yaratish;	Past
		belgilangan muddatda qaror qabul qilmaslik yoki navbatdan tashqari tartibda yoxud muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan amaldagi talablarni chetlab o'tgan holda tezlashtirib qaror qabul qilish;	Past
		hujjatlarga, ma'lumotlarning elektron bazasiga bila turib yolg'on ma'lumotlarni kiritish;	Past
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;	Past
		xizmat vakolatlarini amalga oshirishda favoritizm, nepotizm, mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik holatlarining mavjudligi;	Past

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
tizimida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
6-ILOVA

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo‘yicha mezonlar

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori*	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilgani sud tomonidan tasdiqlangani
O‘rta*	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgani to‘g‘risidagi ma’lumot mavjud ino at sodir etilani sud tomonidan tasdiqlanmagan
Past*	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to‘liq avtomatlashtirilan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to‘liq tartibga solingan
	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilish imkoni ati mavjud emas
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgani to‘g‘risidagi ma’lumot mavjud emas

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
tizimida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
7-ILOVA

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish DASTURI

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari/tadbirlari/tartib-taomillari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar
1. Davlat organi/idorasi/hududiy boshqarma, idoraviy markaz yoki muassasa bo‘linmasi nomi				
1.1				
1 2.				
2. Davlat organi/idorasi/hududiy boshqarma, idoraviy markaz yoki muassasa bo‘linmasi nomi				
2.1				
2 2.				

*Maxsus bo‘linma (ishchi guruh) tomonidan davlat tashkilotining faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarning yuqori yoki o‘rta darajada deb baholash davlat tashkiloti rahbari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

* *Davlat tashkilotining faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashda, agarda past darajadagi mezonlarning biri mavjud bo‘lsa, o‘sha korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past darajada deb baholanadi.